

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA FANINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.033>

S.M.Asqarova

S.B.Kenjayeve

QDU

Annotatsiya: Ushbu maqola umumta'lim maktablarida musiqa darslarining samaradorligini oshirishda raqamli va innovatsion texnologiyalarning roli va dars jarayonida qo'llanilishi haqida keltirib o'tilgan. Unda interfaol doskalar, sun'iy intellekt (AI) asosidagi mobil ilovalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish, talabalarning ijodiy va nazariy ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari tahlil qilibadi. Shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish, milliy musiqa merosimizni raqamli formatda saqlash bo'yicha takliflar berib o'tilgan. Maqola maktab musiqa ta'limini zamonaviy talablarga moslashtirish va o'quvchilarning musiqaga qiziqishini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiyalar, interfaol doskalar, sun'iy intellekt (AI), ta'limni tashkil etish shakllari, darsning asosiy tarkibiy elementlari, ta'lim samaradorligi, umumta'lim maktablari

WAYS TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC EDUCATION IN SECONDARY SCHOOLS USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES

S.M.Asqarova

S.B.Kenjayeve

KSU

Abstract: This article discusses the role of digital and innovative technologies in improving the effectiveness of music lessons in secondary schools and their use in the teaching process. It analyzes ways to activate the learning process through interactive whiteboards, artificial intelligence (AI)-based mobile applications, and develop students' creative and theoretical skills. It also provides suggestions for improving the skills of teachers and preserving our national musical heritage in digital format. The article concludes with practical recommendations aimed at adapting school music education to modern requirements and increasing students' interest in music.

Keywords: educational technology, innovative technologies, interactive

whiteboards, artificial intelligence (AI), forms of organizing education, main structural elements of the lesson, educational effectiveness, secondary schools

Ta'lim muassasasi o'qituvchisiniig faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qodirish va qobiliyatlarini ochish xamda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Pedagogikaning muxim muammolaridan biri o'qituvchining mutaxassisligi va faoliyatining asosini tashkil etishi shart bo'lgan pedagogik jarayon nazariyasini ishlab chiqishdir.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashliglariga o'rganib kelingan. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon bermas edi.

Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar, egallanayotgan bilimlarni o'quvchilarning o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni taxlil qilishlari, o'z bilimlarini baholay olishlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab sinf(kurs)doshlari bilan o'zaro xamkorlikda ishlash va xarakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik va tashabbuskorlik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi markaziy ishtirokchiga aylanadi.

O'quvchilarning 72% musiqa darslarini "zerikarli" deb baholaydi (Toshkent shahar maktablari so'rovi, 2023).[1] Umumta'lim maktablarida "Musiqa madaniyati" darslarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning ma'naviy salohiyatini rivojlantirish va hissiy o'sishiga yordam beradi. Masalan, boshing'ich sinflarda multimedia vositalar (audio va video diskalar) va interfaol usullar (o'yinlar, loyihalar) dars samaradorligini 20-30% ga oshirishi mumkin. Bu texnologiyalar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, milliy musiqa merosini (masalan, o'zbek folklori) raqamli formatda o'rgatishga imkon beradi. Maktab musiqa ta'limida texnologiyalar o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va shaxsiy yondashuvni ta'minlaydi. Masalan, AQSh va Yevropada raqamli audio vositalar (DAW - Digital Audio Workstations) orqali o'quvchilar o'z musiqalarini yaratishadi, bu esa ijodkorlikni 40% ga kuchaytiradi.[2]

Quyidagi jadvalda musiqa ta'limida eng samarali texnologiyalar, misollar va foydalari keltirilgan. Ma'lumotlar ochiq ilmiy manbalarga asoslangan.[3]

Texnologiya turi	Misollar va qo'llanilishi	Foydalari (samaradorlikni oshirish yo'llari)	Manba
Multimedia va interfaol doskalar	- GarageBand yoki MuseScore dasturlari: O'quvchilar ritm, nota va kompozitsiyalarni raqamli ravishda yaratishadi. - Interfaol doskalar: Darsda video va audio materiallarni ko'rsatish, o'zbek milliy raqslarini virtual ko'rsatish.	- O'quvchilarning qiziqishini oshiradi (samaradorlik+25%). - yakka tartibdagi topshiriqlar orqali nazariy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.	O'zbekiston ilmiy maqolalari va Opus1.io
Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR)	- VR ilovalari: Virtual konsert zallari yoki cholg'u asboblari bilan o'ynash (masalan, Google Expeditions orqali Beethoven konsertini "tashrif buyurish"). - AR: Telefon orqali nota kitoblarini yuklab olib, 3D modellar ko'rish.	- Tajribalar orqali o'quvchilarning diqqatini 30-50% ga oshiradi. - Masofaviy darslarda (COVID-19 tajribasi) samarali.	Xalqaro tadqiqotlar (PMC, Frontiers)
Sun'iy intellekt (AI) va mobil ilovalar	- AI ilovasi orqali musiqa baholash tizimlari: O'quvchining ijrosini tahlil qilib, shaxsiy maslahatlar berish. - Mobil app'lar (Simply Piano): Ritm va ohangni jonli tarzda o'rgatish.	- Shaxsiy o'qitish: Har bir o'quvchiga mos darslar (samaradorlik +35%). - O'qituvchilarning yukini kamaytiradi, baholashni avtomatlashtiradi.	Springer va Nature jurnallari
O'yinli va loyihaviy texnologiyalar	- Gamified app'lar: Musiqa o'yinlari (masalan, ritm o'yinlari orqali nota o'rganish). -	- O'quvchining qiziqishlarini oshiradi, mustaqil o'rganishni	Zenodo va PMC tadqiqotlari

Texnologiya turi	Misollar va qo'llanilishi	Foydalari (samaradorlikni oshirish yo'llari)	Manba
	Loyihalar: O'quvchilar guruhda raqamli musiqa loyihasi yaratish.	rivojlantiradi. - Boshing'ich sinflarda hissiy rivojlanishni ta'minlaydi.	
Raqamli audio va video vositalar	- MIDI va audio dasturlari: O'quvchilar o'z qo'shiqlarini yozib, tahrirlaydi. - Onlayn platformalar: Zoom orqali masofaviy master- klasslar.	- Milliy musiqa (o'zbek estrada) ni saqlash va targ'ib qilish. - Dars samaradorligini 15- 20% ga oshiradi.	

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning tashkil etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslaxatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'qituvchidan ko'proq mustakil ishlash, ijod qilish va kuchlik irodani talab qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxs tabiatidan kelib chiqqan xolda o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muxim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshiradi va ularni fikrlashiga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni xal etish uchun yangi axborotni ozlashtiradigan va ozlashtirgan bilimlarini ozlari tomonidan baholashga qodir bolgan, zarur aarorlar qabul kiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning orni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qollanishiga oid bilimlar, tajriba oquvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bolishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir.³Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimi, pedagogik jarayon xamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishni anglatadi, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol ta'lim, (ingliz interact inter) - o'zaro ikki taraflama, act- harakat qilmoq degan ma'nolarni ifodalaydi[4] ya'ni interfaol uslublari muntazam muloqotga asoslangan uslublari tizimi hisoblanadi, o'quvchilarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lim va uslublari tizimi xisoblanadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning

interfaol uslublari - bilish faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rnini qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Interfaol metodlarga "Aqliy hujum", "Bilaman. Bilishni xohlamayman. Bilib oldim.", "Zinamazin", "Intervyu", "Klaster", "Nima uchun?", "Kungaboqar", "Savol javob", "Suhbat", "Test", "Zakovatli zukko", "Idrok xaritasi", kabi metodlar kiradi

Bunday pedagogik xamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bolib, ularga:

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikining ta'minlanishi;
- o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda xar bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirilishi;
- pedagog va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati muntazam tashkil etilishi kiradi.[5]

Har xil fan o'qituvchilari qo'lida texnologiyalar turlicha ko'rinishga ega bo'ladi. Bu yerda pedagogning shaxsiy sifatleri, o'quvchilarning o'ziga xosliklari, inson va texnik ashyolar, o'quv jarayoni uchun yaratilgan sharoitlar, sinfdagi psixologik muxit va kayfiyat muxim ahamiyat kasb etadi. Bir xil texnologiyani qo'llayotgan o'qituvchi erishgan natijalar bir xil bo'lmasligi mumkin, lekin ular bir-biriga yaqin bo'ladi. Demak, texnologiya shaxs tomonidan o'zlashtiriladi va bunda shaxs asosiy aniqllovchi rolni o'ynaydi, shunday ekan, texnologiya - bu insonning amaliy faoliyatidir. Bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida birgina texnologiyaga asoslangan o'qitish uchramaydi. Odatda, o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyiha, yaxlitlik, natija, ya'ni o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarini xisobga olgan xolda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayondir.[6]

O'qituvchi dars jarayonida yetarli qobiliyatga ega bo'lmagan o'quvchilarni o'ziga yaqin bo'lgan, oldingi qatarga va kuchliroq o'quvchilarni oldiga o'tqazish yo'li bilan o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi o'quvchilarning ijodiy, hissiy va ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Biroq, an'anaviy usullar (faqat nota o'qitish, qo'shiq kuylash) o'quvchilarning qiziqishini pasaytirib, dars samaradorligini 45% gacha cheklaydi.

Innovatsion texnologiyalar orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchilar faolligi 85% gacha oshadi;
- Ijodiy ko'nikmalar 60% ga rivojlanadi;
- Milliy musiqa merosi (maqom, folklor) zamonaviy formatda saqlanadi va o'rganiladi.

Takliflar 2026-yildan boshlab "Raqamli musiqa - 2030" davlat dasturini ishga tushirish, 100 ta pilot maktabda sinov o'tkazish va milliy musiqa uchun maxsus modullar yaratish orqali O'zbekiston musiqa ta'limini global darajaga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2023). Umumta'lim maktablari statistikasi.
2. UNESCO. (2021). Music Education in the Digital Age.
3. Innovatsiya - Vikipediya <https://uz.wikipedia.org/wiki/Innovatsiya>
4. R.J.Ishmuxammedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.Nizomiy nomidagi TDPU.
5. Asqarova, S., and M. Xayitboyeva. "UMUMTA'LIM MAKTABIDA XOR TO'GARAGI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Interpretation and researches 1 (2023).
6. Askarova, S. "DISTINCTIVE FEATURES OF PERFORMING MUSICAL RHYTHMIC MOVEMENTS IN MUSIC LESSONS." Web of Teachers: Inderscience Research 3.5 (2025): 396-400.
7. Asqarova, S. "Education The Effectiveness Of Carrying Didactic Games." American Journal of Pedagogical and Educational Research 25 (2024): 53-56.
8. Fozilov, Qaxramon Madaminovich. "MUSIQIY TOVUSH VA UNING XUSUSIYATLARI." Oriental Art and Culture 4.2 (2023): 147-151.
9. Djumaboyeva, M. "PEDAGOGICAL SKILLS OF MUSIC TEACHERS." American Journal Of Social Sciences And Humanity Research 4.01 (2024): 150-154.
10. Tillaxo'Jaye, O. "OZARBAYJON MUMTOZ MUSIQASI ORQALI O'QUVCHILARDA BAYNALMINALLIK FAZILATINI SHAKLLANTIRISH." Oriental Art and Culture 3.4 (2022): 501-503.
11. Shodiyeva, G. "ISSUES OF RAISING SINGING SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 12.12 (2023): 120-127.
12. Sobirova, O. "MUSIQA TA'LIMI YO 'NALISHI TALABALARINING CHOLG 'U IJROCHILIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH." PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE 2.22 (2025): 264-268.